

TA'LIM JARAYONIDA QORAQALPOQ XALQINING MUSIQIY PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISHNING ASOSIY TENDENTSIYALARI

Moyanov Iqlasbay Jiyenbaevich

O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali.

*«Folklor va etnografiya» kafedrasida dotsenti., Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(Doctor of Philosophy)*

Mazkur maqolada, ta'lim jarayonida qoraqalpoq xalqining musiqiy pedagogikasidan foydalanishning asosiy tendentsiyalari ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek maqolada, Yangilanayotgan O'zbekistonda turmushdagi ilg'or tendentsiyalarni zamonga, yoshlar qiziqishlariga hamohang yangi g'oyalar asnosida ishlab chiqish, qadimiy va boy tajribaga ega qoraqalpoq milliy musiqasini saralab olib barkamol yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda foydalanish muhim pedagogik ahamiyatga egaligi talqin qilingan.

Kalit so'zlar: qoraqalpoq xalq musiqasi, ta'lim, tarbiya, tendentsiya, jirov san'ati, xalq kuyi, yoshlar, talaba, innovatsion texnologiya, kreativ yondashuv, elektron axborot-ta'lim resurslari, milliy urf-odat, an'ana va qadriyat.

ОСНОВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МУЗЫКАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ КАРАКАЛПАКСКОГО НАРОДА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Моянов Икласбай Жиенбаевич

Нукусский филиал Государственного института искусства и культуры Узбекистана.

Доцент кафедры фольклора и этнографии, доктор философских и педагогических наук

В данной статье с научной и теоретической точки зрения анализируются основные тенденции использования музыкальной педагогики каракалпакского народа в образовательном процессе. Также в статье трактуется важное педагогическое значение развития передовых тенденций в жизни модернизирующегося Узбекистана в соответствии с новыми идеями и в соответствии со временем и интересами молодежи, отбирая древний и богатый опыт каракалпакской национальной музыки.

Ключевые слова: каракалпакская народная музыка, образование, воспитание, искусство, народная песня, молодежь, студент, инновационные технологии, творческий подход, электронные информационно-образовательные ресурсы, национальная традиция, традиции и ценности.

MAIN TRENDS IN THE USE OF MUSICAL PEDAGOGY OF THE KORAKALPAK PEOPLE IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Moyanov Iqlasbai Zhiyenbaevich

Nukus branch of the State Institute of Art and Culture of Uzbekistan.

Associate Professor of the Department of Folklore and Ethnography, Doctor of Philosophy and Pedagogical Sciences

This article analyzes the main trends in the use of musical pedagogy of the Karakalpak people in the educational process from a scientific and theoretical point of view. The article also interprets the important pedagogical significance of the development of advanced trends in the life of modernizing Uzbekistan in accordance with new ideas and in accordance with the time and interests of youth, selecting the ancient and rich experience of Karakalpak national music.

Key words: Karakalpak folk music, education, upbringing, art, folk song, youth, student, innovative technologies, creativity, electronic information and educational resources, national tradition, traditions and values.

Kirish. Qoraqalpoq xalqi asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to'pladi, unda xalqning yillar davomida yuragida saqlanib kelayotgan o'ylari, udumi, ongi va psixologiyasini o'ziga singdirgan tarixiy voqealarga boy musiqa san'ati tarbiya vositasi sifatidagi yosh avlodga etkazildi. Xususan, san'at va pedagogikani yoshlar qiziqish va qarashlarini o'zida mujassam qilgan dasturlar ishlab chiqish, yoshlarni xalq musiqasi vositasida tarbiyalash masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar natijalari muhim ahamiyatga ega. Shuning bilan birgalikda ta'lim jarayonida qoraqalpoq xalqining musiqiy pedagogikasidan foydalanishning asosiy texnologiyalarini takomillashtirish hamda oliy ta'lim tizimida qoraqalpoq xalqining musiqiy pedagogikasi evolyutsiyasini, tarixiy-

nazariy jihatdan takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Adabiyotlar va pedagogik lug'atlarga ko'ra tendentsiya taraqqiyot yo'nalishi; biror narsaga qiziqish, moyillik, intilish ma'nolarini anglatadi. Ma'lum o'y-mulohaza, tasvir yoki asarning asosiy mazmuni, g'oyasi [8] Turmushdagi ilg'or tendentsiyalarni zamonga, yoshlar qiziqishlariga hamohang yangi g'oyalar ishlab chiqish, qadimiy va boy tajribaga ega qoraqalpoq milliy musiqasini saralab olib barkamol yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda foydalanish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Shu o'rinda ayrim jirovlarni eslab o'tish maqsadga muvofiq. Shulardan biri Shankay Jirov (1814-1884) (Shankut) sanaladi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, uning asl nomi Dosmuhammed, yoki Dosummed bo'lib, u qorakalpoklar mang'it ruhi oymavit urug'idan bo'lgan.

Jiyemurat jirov. (1836-1908) Jiyemurat jirov Bekmuhammed o'g'li XIX asr ikkinchi yarmida ma'lum va mashhur jirovlardan biri bo'lgan. U Qoraqalpog'iston To'rtko'l tumaniga qarashli Sho'rxon qishlog'ida istiqomat qilgan. Jiyemurat jirov qoraqalpoqlar xitoy qabilasi qayshili urug'idan bo'ladi. Uning tug'ilgan va vafot etgan sanasi haqida ma'lumot Kurbanbay jirovdan yozib olinadi. Kurbanbay aytishicha, u «To'rtko'ldagi Seytmurat boy degan mulkdorga dehqon bo'lib yollangan» deydi.

Nurabilla jirov (1862-1922) Karajan o'g'li qoraqalpoqning eng ko'p iqtidorli shogirdlar tayyorlagan taniqli jirovlaridan biri bo'lgan. Nurabilla jirov qoraqalpoqning Ko'ng'iro't arisidan, Kandekli qabilasi qurama urug'idan bo'ladi. U yosh vaktida Bola jirov deb nomlangan.

Erpolat jirov (1861-1938) Uning yashagan joyi Chimboyning kubla tarafi (hozirgi Kegeyli tumani) Kepe qishlogi bo'ladi. U qorakalpoqlar o'rtasida eng taniqli jirovlarning biri bo'lgan. 1929-yili Erpolat bilan suxbatlashganimizda: «qoraqalpoqlarning eski dasturida xar kim etti ota-bobosi hakida bilish kerak) U etti otasi hakida to'liq biladi ekan.

Kurbanbay jirov (1876-1958) Kurbanbay jirov Tajibay o'g'li qoraqalpok xalqining taniqli jirovi bo'lib hisoblanadi. U Shoraxan atrofida kambag'al oilada tug'ilgan. 1930-yillardan boshlab Turtqul shaxridagi radioeshittirish komitetida Abduraman Ute'pov boshlagan «Tong nuri» truppasida ishladi.[6]

Muhokama. Yangi O'zbekistonda o'tkazilayotgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar yoshlarning, ayniqsa, talaba-yoshlarni yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ta'lim tizimini insonparvarlashtirish, mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga, ularning ma'naviy-axloqiy kamolotiga katta e'tibor berilmoqda.

Haqiqatdan ham mafkuraviy kurash kuchayib borayotgan bugungi kunda ma'naviy tarbiyaning naqadar muhim rol o'ynashi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi"da yaqqol ochib berilgan. Shu ma'noda xalq qo'shiqlari, milliy taronalar talabalar hayotiy repertuaridan joy egallishi uchun ta'lim tizimini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida:

- xalq qo'shiqlari jamlanmasidan iborat, elektron axborot-ta'lim resurslarini yaratish;
- o'qitishning mavjud va yangi texnologik shakllarini o'zaro muvofiqlashtirish;

- o'quv hamda mutaxassislik fanlari (musiqa madaniyati, musiqa tarixi) asoslarining talabalar tomonidan mustaqil o'zlashtirilishi uchun qulay pedagogik va texnologik shart-sharoitlarni vujudga keltirish ko'zda tutiladi.

Jahon amaliyotida ta'lim tizimining modernizatsiyasi insoniyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini sifatli ta'lim olishga bo'lgan talabini qondirishga qaratilgan bo'lsa, O'zbekistonda Oliy ta'lim tizimi modernizatsiyasi jahon tajribasining o'zini oqlagan yutuqlarini o'zida mujassam etgan holda o'ziga xos, konseptual negizda, milliy qadriyatlar, ma'naviy asoslarni tiklash, "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari", deb belgilangan milliy g'oyani, Uchinchi Renessansni ro'yobga chiqarish maqsadlari bilan hamohang amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbus, ma'naviyat va ma'rifat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning tarbiyaviy innovatsiyalari sifatida namoyon bo'lmoqda.[7]

Shu nuqtai nazardan qaraganda, xalq qo'shiqlarining tarbiya vositasi sifatidagi roli yoshlar o'rtasida Vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarning hayotimizdagi o'rni, go'zalligi va ahamiyatini har tomonlama ochib berishi suhbat va uchrashuvlar, madaniy-ma'rifiy tadbirlarda o'z tasdig'ini topmoqda. "Mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilishning bugungi yangi bosqichida madaniyat va san'atning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini oshirish, yosh avlodimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ona yurtga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash"[8] vazifalari belgilanib, bu borada oliy o'quv yurtlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaviy ishlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda artpedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish hamda ilmiy asoslashni taqozo etmoqda.

Alohida e'tirof etib o'tish lozimki, qoraqalpoq xalqining musiqa san'ati o'ziga xos nafis xususiyatlari, mazmun, shakl va tarbiyaviy imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Qoraqalpoq xalq qo'shiqlarining badiiy matnida insoniyatning paydo bo'lishidan tortib, asrlar osha shakllanib kelgan tarixi va orzu intilishlari talqin qilingan. Halq qarashlarida qo'shiqlarning tutgan o'rni, tarixiy asoslari, poetikasi, g'oyaviy-badiiy hususiyatlari, halq turmush tarzidagi maishiy vazifasi, shuningdek, qo'shiqlarning janriy hususiyatlari, ularda talqin qilinayotgan ramz, obraz, tilsimlar mohiyatini ochib berish va kreativ yondashish asnosida yosh avlod qalbidan joy egallashiga erishish muhim masalalardan biridir.

Qo'shiqlar qoraqalpoq xalqining musiqiy san'atida keng rivojlangan mashhur janrlarning biridan hisoblanadi. Xalq o'zining siyosiy hayot tarzi bilan ma'naviy kayfiyatini: udumi, ongi va psixologiyasini o'ziga singdirgan tarixiy voqealarga boy. Chunki, so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan nozik o'ylarni kuy orqali berish ancha engil va ta'sirli chiqishi barchaga ma'lum. SHu sababli, xalq qo'shiqlari o'zi yaratgan xalqning hayot tarzi bilan qaynab, pishib, xalq tarixi bilan birga rivojlanib keldi.[4]

Hech kimga sir emas bugungi yosh avlodni xalq qo'shiqlariga qaraganda pop musiqa, rok musiqa, estrada janrlari ko'proq qiziqtiradi. Xalq qo'shiqlarini tinglab, tarbiyaviy mohiyatiga e'tibor qaratadigan yoshlarimiz barmoq bilan sanarli.(Musiqiy ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan yoshlar bundan mustasno)

Natijalar. Shunga ko'ra biz, tajriba-sinov ishlari jarayonida, o'quv - biluv faoliyati, ma'naviy ma'rifiy tadbirlar, "Ma'naviyat kunlari" jarayonida qoraqalpoq xalqining musiqiy pedagogikasidan foydalanishda musiqa uslublarini tanlash ayniqsa, yangicha pedagogik yondashuv asnosida ta'lim jarayonini tashkil etish muhim. SHunga ko'ra quyida biz «Labirint» texnologiyasidan foydalanib bir soatlik mashg'ulot xaritasini namuna sifatida keltirib o'tamiz. Musiqa tarixidan bilamizki, qoraqalpoq xalqining musiqiy pedagogikasida "Jirov baxshilik" uslubi alohida o'rin tutadi. Qoraqalpoq xalqida jirovchilik maktablari shuhrat qozongan. Odatda, ular mahalliy aholi orasida istiqomat qilishib, xalq o'g'il-qizlarini yuksak insoniylik hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vazifasini o'z zimmasiga olishgan. Shuningdek, jirovchilik an'alarini mustahkamlashda shogird tayyorlash dasturi muhim ahamiyat kasb etadi. O'lkada jirovchilik an'analari baxshi, qissaxon va shoirlarga nisbatan avvalroq paydo bo'lgan. Milliy qadriyatlar tarixiy rivoji jirovchilik maktablari hosil qilgan. [4]

Shunga ko'ra biz "Qoraqalpoq jirovlari" mavzusida «Labirint» texnologiyasidan foydalanib mashg'ulot tashkil etdik.

Texnologiyaning maqsadi: talabalarni qo'biz va jirovchilik san'ati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish, jirovchilik an'alarini mustahkamlashda shogird tayyorlash dastur namunasini tayyorlash, "Erman to'lg'ovi», «Duysenboy», «Aytuar kuyi», «Dilim» kuyi, «Subay», «Audan jirov» kuylarini mazmun mohiyatini anglash.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: o'qituvchi mashg'ulot boshlanishi oldidan talabalar uchun stullardan doira shaklida joy tayyorlaydi (doira shaklidagi joyning o'rtasiga savat (yoki tuvak)dagi guldastani qo'yish maqsadga muvofiq. Joyni bunday - jihozlanishi mashg'ulotni qiziqarli va jonli o'tishiga yordam beradi. Imkon bo'lsa, bunday mashg'ulotni ochiq havoda, ya'ni tabiat qo'ynida o'tkazilsa, u holda talabalar yashil maysalar ustida doira shaklida bemalol joylashib olsalar ham bo'ladi. O'qituvchi mashg'ulot boshlanishi bilan talabalarni shu davradan joy egallashlarini so'raydi. So'ngra talabalarni tarix saboqlaridan xabardorligi, milliy merosimizga munosabati qay darajada ekanligi haqidagi qisqacha suhbat bilan mashg'ulotni boshlaydi. Misol tariqasida o'qituvchi, talabalarga «Duysenboy», «Aytuar kuyi», «Dilim» kuyi audiotasma yordamida eshittirib "Siz tinglagan kuyning nomi nima" deb savol beradi, javob tariqasida uchta varinat aytadi, talabalar variant tanlab nima uchun shu variantni tanlaganliklarini tushuntirib berishlarini so'raydi. SHundan so'ng o'qituvchi talablarni xohishlariga ko'ra, uch kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi va ularga har bir kichik guruh a'zolari o'z ish tajribalaridan kelib chiqqan holda, «Duysenboy», «Aytuar kuyi», «Dilim» kuylari to'g'risida ma'lumot berishlari so'raladi.

O'quv va tarbiyaviy jarayonda o'qituvchi talabalardan qo'shiq matnini ijro eta olish qobiliyatlarini ham sinab ko'rishi mumkin. Berilgan vaqt ichida kichik guruh a'zolari "berilgan topshiriq" echimini topishga harakat qiladilar, vaqt tugagach, guruhlarning javoblari tinglanadi.

Masalan, avval bir kichik guruh tanlagan kuy tarixi bilan tanishtiradi va qolgan kichik guruhlarning navbati bilan ushbu masalaga o'z munosabatlarini bildiradilar. Barcha kichik guruhlarning o'zlari tanlagan javoblarini aytib bo'lishgach, berilgan topshiriq yuzasidan o'rtaga tashlagan kichik guruhning o'zi to'g'ri echim haqida fikr bildiradi, o'qituvchi ham shu masalaga nisbatan o'z fikrini bildiradi va bildirilgan barcha kichik guruh fikrlarni umumlashtiradi. So'ngra, ikkinchi guruh tinglanadi, shu kabi davradagi guruhlarning tomonidan o'rtaga tashlangan barcha jirovchilik tarixi to'g'risidagi ma'lumotlar muhokamasi o'tkaziladi. Mashg'ulot oxirida o'qituvchi talabalar va guruhlarning ishiga baho beradi va talabalar qiziqishlarini uyg'otishda nimalarga ko'proq e'tiborni qaratish kerakligi to'g'risida tavsiyalar beradi, so'ngra mashg'ulotni yakunlaydi.

Izoh: ushbu texnologiyami o'quv jarayonida tashkil etiladigan dars (amaliy) mashg'ulotlarida ham qo'llash mumkin. Masalan, o'quv predmeti bo'yicha o'zlashtirilgan mavzular yoki bo'limlardan talaba o'zlashtirish darajalarini aniqlashda ushbu texnologiyaning qo'llanishi talabalar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini yanada chuqurroq mustaxkamlashlariga, ularni amaliyotda qo'llashlarida echimini to'g'ri topishlariga yordam beradi.[5]

Xulosa qilib aytganda qoraqalpoq xalqining musiqa san'ati yordamida talaba yoshlarni halol mehnat, chin do'stlik, mustahkam muhabbat va qahramonlikka ruhlantirip, g'oyaviy-estetik madaniyatini takomillashtirish muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Biz kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga ko'ramiz. -Toshkent, «O'zbekiston», 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 maydagi «Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida» gi Qarori. www.lex.uz.
3. Akbarov I. Musiqa lug'ati G'afur Hulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti T.
4. Qodirov R. «Musiqa pedagogikasi»-T.» Musiqa» 2009 y.
5. Ishmuha medov R. Abduqodirov A. Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste'dod, 2008.- 180 b.
6. Maqsetov Q. Qaraqalpaq xalqining a'olisi bo'lgan doretpeleri. –Nekis:Bilim, 1996. –B. 340.
7. Mustafayev Sh. N. Oliy ta'lim modernizatsiyasining artpedagogik asoslarini rivojlantirish Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya Toshkent 2023
8. <https://uz.wiktionary.org/wiki/tendensiya>
9. <https://imfaktor.com/index.php/jocaa/article/view/95/143>